

“TASDIQLANGAN”

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Aksiyadorlarining navbatdagi yillik
umumiy yig'ilishining
2025-yil “27 iyun” dagi
4-sonli bayonnomasi bilan

Yig'ilish raisi



B. Radjabov

M.O'.

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining
“Boshqaruvi to'g'risida”gi
Nizom
(yangi tahrirda)**

“MA'QULLANGAN”

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki
Kuzatuv kengashi majlisining
2025-yil “25” iyun” dagi 10-sonli bayonnomasi bilan
Kuzatuv kengashi raisi



B. Zaxidov

Boshqaruvining
2025-yil “25” iyun” dagi 10/13-sonli qarori bilan
Boshqaruv raisi v.b



O. Butayev

Toshkent – 2025-yil

1-bob. Umumiy qoidalar

1. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat bankining "Boshqaruvi to'g'risida"gi Nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom) "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki (keyingi o'rinlarda – Bank) Ijro etuvchi organining – Boshqaruvining maqomini belgilaydi va uning ishini, a'zolarini tayinlash tartibini, shuningdek har bir a'zosining huquq va majburiyatlarini tartibga soladi. Ijro etuvchi organ deganda yakka boshchilik qiladigan ijro etuvchi organ (rais), kollegial ijro etuvchi organ (Boshqaruv) tushuniladi.

Bankning joriy faoliyatini boshqarish Bank Ustavi va ushbu Nizom bilan belgilanadigan Ijro etuvchi organ – Boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi.

Bank Boshqaruvining vakolatlari ijro etish uchun uchinchi shaxslarga o'tkazilishi mumkin emas, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

2. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-apreldagi 356-son "Davlat aktivlarini boshqarish tizimini ya'nada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2021-yil 29-martdagi 166-son "2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari, "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida"gi (ro'yxat raqami 3254, 2020-yil 30-iyun) va "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi (ro'yxat raqami 916, 2000-yil 5-aprel) Nizomlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga, shuningdek Bank Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

2-bob. Bankning Ijroiya organi – Boshqaruvini tuzish va uning vakolatlarini tugatish tartibi

3. Bankning kundalik faoliyatiga rahbarlik ijro etuvchi organ (ijroiya organ) – Bank Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv faoliyatiga Bank Boshqaruv raisi rahbarlik qiladi.

Bank Boshqaruvining vakolatlari ijro etish uchun uchinchi shaxslarga o'tkazilishi mumkin emas, bundan O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan hollar mustasno.

4. Bank Boshqaruvi 7 (yetti) nafar a'zodan iborat bo'lib, uning tarkibiga:

Boshqaruv raisi;

Boshqaruv raisi o'rinbosarlari;

Bosh buxgalter;

Bank faoliyatining muhim yo'nalishlarini ta'minlovchi boshqa mutaxassislar kirishi mumkin.

5. Bank Boshqaruvining son tarkibi boshqaruv apparatini imkoni boricha qisqartirish, Bankni boshqarishda bir-birini takrorlovchi bo'g'inlarning tugatilishi va u bilan bog'liq boshqaruv hujjatlarining qisqarishi prinsiplaridan kelib chiqib belgilanadi.

6. Bank Boshqaruvi Bankning kollegial ijro etuvchi organi hisoblanib, Bankning joriy faoliyatini boshqaradi.

Bank Boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bank Ustavi, Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlariga asosan hamda Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq Bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda Bankning faoliyati uchun javobgarlikni to'liq zimmasiga oladi.

7. Bank Boshqaruv raisi va a'zolari Bank Kuzatuv kengashi (agar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga yoki Bank Ustaviga ko'ra bunday vakolat berilgan bo'lsa) yoki Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan saylanadilar (tayinlanadilar) va vakolatlari muddatidan ilgari tugatiladi. Bunda, Bank Boshqaruv raisi va a'zolari lavozimlariga ko'rsatilayotgan nomzodlarni ularning lavozimga kirishishidan oldin O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishib olinadi.

8. Bank Boshqaruv raisi va a'zolari Bank Kuzatuv kengashi tomonidan Kuzatuv kengashi majlisida ishtirok etayotgan a'zolarning yoki Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadolarning ko'pchilik ovozi bilan 3 (uch) yil muddatga saylanadilar (tayinlanadilar) va ularning vakolatlari muddatidan ilgari tugatiladi, shu jumladan ular bilan tuzilgan shartnoma bekor qilinadi yoki muddatidan ilgari bekor qilinadi.

Bunda, Boshqaruv raisi sifatida tayinlangan (qayta tayinlangan) shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq Boshqaruv raisi bo'lishi mumkin emas.

Aksiyadorlar vakili sifatida ishtirok etuvchi Bank Boshqaruv a'zosi Bank Boshqaruv a'zolarini saylash masalasida ovoz berish huquqiga ega emas.

9. Bank Boshqaruv raisi va Boshqaruv raisi o'rinbosarlarini tayinlash, qoida tariqasida, chet ellik menejerlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov bo'yicha saralash asosida amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi qarori bilan tayinlanadi.

10. Boshqaruv a'zolari lavozimlariga tanlov o'tkazish tartibi, nomzodlarga qo'yiladigan talablar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

11. Bank Boshqaruvi a'zoriga nomzodlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash Bank Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv a'zoriga nomzod Bankka o'zi jinoiy javobgarlikka tortilganligi to'g'risidagi faktlarni ma'lum qilishi shart.

Bank aksiyalari O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 22-moddasi birinchi va to'rtinchi qismlarida belgilangan talablar buzilgan holda olingan taqdirda, aksiyalarning egasi bunday bitim tuzilgan kundan e'tiboran Bank Boshqaruvi a'zoriga nomzodlar ko'rsatishga haqli emas.

12. Boshqaruv tarkibiga u yoki bu nomzodni tavsiya etar ekan Bank Kuzatuv kengashi raisi shartnoma tuzish shartlari, Boshqaruv faoliyati uchun mukofotlash miqdori va nomzodning shaxsiy arizasi bilan tasdiqlangan shartnoma tuzishga nomzodning roziligi to'g'risida axborot beradi.

13. Bank Boshqaruvi a'zoriga nomzodlar o'zlarining nomzodlari ko'rib chiqilayotganda Bank Kuzatuv kengashi majlisida qatnashishlari mumkin.

14. Boshqaruv tarkibiga taklif qilingan nomzodlar saylangandan (tayinlangandan) keyin, ular bilan lavozim bo'yicha majburiyatlarni bajarish yuzasidan 3 (uch) yil muddatga shartnoma tuziladi.

Shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish to'g'risida har yili qaror qabul qilinishi mumkin.

Boshqaruv a'zolari bilan tuziladigan shartnomada uning Bank faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha majburiyatlari hamda Bankning yillik biznes-rejasini bajarish qanday borayotganligi yuzasidan Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi oldida beradigan hisobotlarining davriyligi nazarda tutilishi kerak.

15. Bank Boshqaruvi raisi bilan tuziladigan shartnomani Bank nomidan Bank Kuzatuv kengashi raisi imzolaydi. Boshqaruv a'zolari bilan tuziladigan shartnomalarni Bank nomidan Bank Kuzatuv kengashi raisi yoki Bank Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs imzolaydi.

16. Boshqaruv a'zolariga to'lanadigan haq miqdori Bank faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlarini bajarilishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi va shartnomada belgilanadi. Bunda:

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan Bank Boshqaruviga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar, shuningdek ularning eng yuqori miqdorlari belgilanadi va ularga o'zgartirish kiritiladi;

Bank Boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari ular faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI ni) bajaradi va ularga muvofiq rag'batlantirish to'lovlarini oladi;

Bank tomonidan qonunchilikka muvofiq davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organiga axborotlar va ma'lumotlar taqdim etilmaganda yoki o'z vaqtida taqdim etilmaganda bunga mas'ul Boshqaruv a'zosi rag'batlantirilmaydi.

17. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Boshqaruv raisi tomonidan u bilan tuzilgan shartnoma shartlari buzilgan taqdirda, mehnat shartnomasini muddatidan ilgari tugatish huquqiga ega.

18. Bank Kuzatuv kengashi Bankning Boshqaruv a'zolari bilan tuzilgan shartnomani ular shartnoma shartlarini buzgan taqdirda bekor qilishga haqlidir.

19. Bank Kuzatuv kengashi Bankning Boshqaruvi a'zolari bilan tuzilgan shartnomani, agar shartnoma tuzishda ular Bank Ustavini qo'pol tarzda buzishga yo'l qo'ygan bo'lsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Bankka zarar yetkazilgan bo'lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

20. Boshqaruv raisi tomonidan Bankning yillik biznes-rejasi parametrlari bajarilishi va (yoki) Bank Ustavi qo'pol ravishda buzilsa va uning harakati yoki harakatsizligi natijasida Bankka jiddiy zarar yetkazilgan taqdirda Bank Kuzatuv kengashi u bilan tuzilgan shartnomani muddatidan ilgari tugatish huquqiga ega.

21. Bank tomonidan soliqlar va O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga boshqa to'lovlar, davlat maqsadli fondlari, ish haqi va dividendlar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik hosil bo'lganda, shuningdek, ketma-ket ikki chorak mobaynida biznes-rejaning asosiy parametrlari bajarilmagan taqdirda, Boshqaruv raisi bilan mehnat munosabatlarini davom ettirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masala Bank Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi.

22. Kuzatuv kengashi qarori bilan Boshqaruv raisining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ushbu Kuzatuv kengashi qarori bilan Boshqaruv raisi yoki uning vazifalarini vaqtincha bajaruvchi tayinlanadi.

23. Boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolari bilan shartnomani bekor qilish haqidagi qaror Bank Kuzatuv kengashi tomonidan oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

24. Bank Boshqaruv raisi va a'zolarini oylik maoshi va ularni moddiy rag'batlantirish miqdori Bank faoliyati samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

25. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari Bank Boshqaruvi organlarida o'rindoshlik asosida ishlashga haqli emaslar.

26. Bank Boshqaruv raisi Boshqaruv tarkibidagi bo'sh lavozim bo'yicha Bank Kuzatuv kengashining kelgusi majlisigacha bo'lgan muddatda vaqtincha vazifalarni bajarish uchun birorta mutaxassisni qo'yish huquqiga ega.

27. Bank Boshqaruvi a'zolari benuqson ishchanlik obro'siga, bank tavakkalchiliklarining samarali boshqarilishini, o'z vakolatlari doirasida asosli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tajribaga, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

28. Bank Boshqaruv a'zolarining banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga doimo muvofiq bo'lishini ta'minlashi shart.

3-bob. Bank Boshqaruvining vakolat va majburiyatlari

29. Bank Boshqaruvi vakolatiga Bankning joriy faoliyatini boshqarish bilan bog'liq barcha masalalarni hal qilish kiradi. Bank Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashining vakolatiga kirgan masalalar bundan mustasno.

30. Boshqaruv raisi va a'zolarining huquq va majburiyatlari amaldagi qonunchilik, Bank Ustavi va ularning har biri bilan tuziladigan shartnomalar bilan belgilanadi.

31. Bank Boshqaruvi Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

32. Bank Boshqaruv raisining vakolatlari va majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

o'zining vakolatlari doirasida Bankning ishiga rahbarlik qiladi;

Bank Kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi;

Bank nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, davlat muassasalari, barcha mulk shakllaridagi korxona va tashkilotlarda uning manfaatlarini himoya qiladi;

Bank mijozlari, shuningdek boshqa tashkilot va korxonalar bilan bitimlar va shartnomalar (kontraktlar) tuzadi;

Bank nomidan hujjatlarni imzolaydi;

o'z vakolatlari doirasida Bankning mol-mulki va mablag'larini tasarruf etadi;

Bank shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta'minlaydi;

shtatlarni tasdiqlaydi, Bank xodimlarini ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qila oladi, va

ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llaydi, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlaydi;

Banklarda vakillik va boshqa hisobvaraqlarni ochadi;

Bank faoliyatini har tomonlama rivojlantiradi hamda Bank aksiyalari bo'yicha dividendlar to'lash uchun zarur bo'lgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlaydi;

Bankni rivojlantirish dasturlarini (biznes-reja) ishlab chiqishda rahbarlik qiladi;

Bank nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni beradi;

Bank nomidan Bank Bosh ofisi nomenklaturasiga kiruvchi xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzadi;

Bankning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

o'z vakolati doirasida Bankning ichki hujjatlarini (qoidalarini) tasdiqlaydi;

amaldagi qonunchilikka muvofiq Bankda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi, tegishli rasmiylashtirilganligi va ishonchligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Bank faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlaydi;

Bankning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni Bank Kuzatuv kengashi yoki Bank auditori talabiga ko'ra taqdim etadi;

davlat statistika hisoboti va buxgalteriya hisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlaydi;

Bank sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlaydi, agar bunday axborotni uchinchi shaxslarga berish uning vazifalari doirasiga kirmasa;

xizmat, tijorat va bank sirini tashkil etuvchi axborotning Bank xodimlari tomonidan saqlanishini ta'minlaydi;

Bankni malakali kadrlar bilan ta'minlaydi, Bank xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan oqilona foydalanish choralari ko'radi;

Bank xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ular mehnatini muhofaza qilinishini ta'minlaydi;

Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida qatnashish, dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilinishini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi va boshqa qonun osti hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativ-huquqiy hujjatlari va ko'rsatmalariga hamda Bank ichki hujjatlariga (qoidalariga) muvofiq boshqa vakolatlar va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

33. Bank Boshqaruvining vakolatlari va majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

Bankning ichki hujjatlarini (qoidalarini) tasdiqlaydi, Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno;

Bank va uning xodimlari, shu'ba korxonalari, vakolatxonalari, filiallari, hududiy bo'linmalari uchun majburiy bo'lgan qarorlar chiqaradi;

Bankni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalari ishlab chiqish, ularni tashkil etish va bajarilishini nazorat qiladi;

Bank Ustaviga muvofiq Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi yoki Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan masalalarni oldindan ko'rib chiqadi hamda ular bo'yicha tegishli materiallar, takliflar va qarorlar loyihalarini tayyorlaydi;

o'z vakolati doirasida mol-mulkni oladi yoki uni boshqa shaxsga beradi yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim tuzadi (bitim tuzish masalasida Bank Boshqaruvi yakdilligiga erishilmagan hollarda bitim tuzish to'g'risidagi masala Bank Boshqaruvi qaroriga muvofiq Kuzatuv kengashiga hal etish uchun kiritilishi mumkin);

o'z vakolatiga tegishli ishlarning holati to'g'risidagi axborotni Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga va Kuzatuv kengashiga belgilangan muddatda taqdim etadi;

o'z vakolatlari doirasida Bankning samarali va barqaror ishlashini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda Bank ichki hujjatlariga (qoidalariga) rioya qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Administratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Markaziy bank, O'zbekiston Respublikasi Banklar assotsiatsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari federatsiyasining topshiriqlari va (yoki) murojaatlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining murojaatlari bo'yicha har bir topshiriq va (yoki) murojaat bo'yicha 100 (yuz) mln so'mgacha homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatadi. Bunda, Bankning homiylikka sarflanadigan har yilgi xarajatlari o'tgan yilda olingan sof foydaning 3 (uch) foizidan oshmasligi kerak hamda bu xarajatlar Bank biznes-rejasining o'tgan hisobot davridagi sof foydaga taalluqli qismi ko'rsatkichlari bajarilganda amalga oshiriladi, bundan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollar mustasno;

Bank aksiyadorlarining amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan axborotlarni olishi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qatnashishi, dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha barcha huquqlariga rioya qiladi;

Bankning strategik maqsadlarini, korporativ boshqaruv, kredit, investitsiya, emissiya, axborot, dividend, likvidlilik, hisob, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish va boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarililigini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshiradi;

Bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan vakolatlarni va javobgarlikni Bank xodimlari o'rtasida o'z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta'minlaydi;

Bank xodimlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

Bankning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajarishi, shuningdek Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishiga va Kuzatuv kengashiga bajarilgan ishlar,

Bankka nisbatan qo'llanilgan choralar hamda sanksiyalar to'g'risidagi xisobotni davriy ravishda taqdim etadi;

"Bank aksiyador (ishtirokchi, ta'sischi) bo'lgan korxona va tashkilotlar boshqaruv organlarida Bank vakillarining ovoz berish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlaydi;

Bankning obro'-e'tibor xatarlarini boshqaradi;

Bank tomonidan depozit (omonat) sertifikatlari chiqarish to'g'risida qaror qabul qiladi hamda depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va ularni muomalada bo'lish shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi;

Bank mulkini begonalashtirishni, uni sotish shakli va mexanizmini, davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlarini (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda oldindan Kuzatuv kengashi bilan kelishadi;

Bank asosiy faoliyatiga xos bo'lgan yangi ko'chmas mulk obyektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanishni faqat Kuzatuv kengashining tegishli qarori qabul qilinganda amalga oshiradi;

Bankning strategik maqsadlari, biznes-rejasi va korporativ boshqaruvga oid siyosatda belgilangan vazifalarni amalga oshiradi;

Bank tashkiliy tuzilmasining barcha darajalarida Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan siyosatlarga, tartib va lavozim yo'riqnomasiga rioya etishi yuzasidan samarali monitoring tizimini o'rnatadi va davriy ravishda ushbu tizim samaradorligini tekshiradi;

Bank Boshqaruvi qarorlarini qabul qilish uchun muhim axborotning tegishli tarzda tayyorlanishi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlovchi ishonchli axborot tizimlarini o'rnatadi;

Bankning biznes-rejasi ko'rsatkichlari va Bank strategiyasi bajarilishini baholash imkonini beruvchi, o'z ichida moliyaviy va boshqa faoliyatning amaldagi natijalarini aks ettirgan hisobotlarning o'z vaqtida Kuzatuv kengashiga taqdim etilishini ta'minlaydi;

Bankning moliyaviy ahvoli yomonlashuvi yoki bunday holat yuz berishi xavfi hamda biznes-reja, strategik maqsadlar, tavakkalchiliklarni boshqarish strategiyasi va risk-appetitdagi o'zgarishlar, tavakkalchilik chegaralari (limiti) va prudensial talablar buzilishi, ichki nazoratdagi xatoliklar, huquqiy yoki tartibga solish bilan bog'liq muammolar yuzasidan kechiktirilmagan tarzda Kuzatuv kengashiga xabar beradi;

Bankni boshqarishning tegishli va ochiq tashkiliy tuzilmasini, shuningdek, o'z vakolatlari doirasida Bank xodimlari o'rtasida vakolatlar va majburiyatlar taqsimlanishini ta'minlaydi;

Bank xodimlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

xodimlarni, jumladan, Boshqaruv a'zolari, muhim ahamiyatga ega xodimlarni ishga qabul qilish va bo'shatish, ularning o'zgartirilishi (rotatsiyasi) va lavozim bo'yicha ko'tarilish, malakasini oshirish, malakali xodimlarni saqlab qolish tartibini ishlab chiqadi, shuningdek, xodimlar o'z majburiyatlari, odob-ahloq qoidalarini buzgan hollarda ularga nisbatan choralar ko'radi;

Bank faoliyatining alohida yo'nalishlarini samarali boshqarish maqsadida, shuningdek qonunchilik va Bankning ichki hujjatlari (qoidalari) talablariga asosan qo'mitalar, komissiyalar, ishchi guruhlar va boshqa kollegial organlarni tashkil etadi, ularning vakolatlarini belgilaydi hamda ular bilan bog'liq ichki hujjatlarni (qoidalarni) tasdiqlaydi va ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi, Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi yoki Boshqaruv raisining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno;

Bank Ustavida hamda banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga va boshqa qonun osti hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativ-huquqiy hujjatlari va ko'rsatmalariga hamda Bank ichki hujjatlariga (qoidalariga) muvofiq boshqa vakolatlar va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

34. Bank bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda yozma bildirish beradi va ushbu bitimni tuzish bo'yicha qaror qabul qilishda ishtirok etmaydi.

35. Boshqaruv a'zolari Bank mol-mulkini tasarruf qilishda shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish huquqiga ega emaslar.

36. Boshqaruv a'zolari ularga xizmat mavqei bilan berilgan huquqlardan o'zlari mehnat munosabatlarida bo'lgan boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlari yo'lida foydalanmasliklari kerak.

37. Bank Boshqaruv raisi va a'zolari Bank manfaatlari yo'lida vijdonan va oqilona harakat qilishga majbur bo'lib, ular quyidagi fidutsiar majburiyatlarga rioya etishlari lozim:

qonunchilik hujjatlari, Bank Ustavi hamda Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi hamda Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan strategiya va siyosatlarni amalga oshirishga doir qarorlarga rioya etgan holda majburiyatlarini o'z vakolatlari doirasida bajarish;

o'zlarining vazifa va funksiyalarini amalga oshirishi uchun o'z vakolatlari doirasida faoliyat yuritish;

zarur va oshkora ma'lumotni belgilangan muddatlarda olish, ular bilan bog'liq tegishli chora-tadbirlarni ko'rish hamda shaxsiy malaka va tajribaga tayangan holda qarorlar qabul qilish;

manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarmaslikka oid talablarga rioya etish;

Bank boshqaruv organlari, shu jumladan, Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashiga nisbatan tenglik tamoyiliga rioya etish;

benuqson ishchanlik obro'siga ega bo'lish.

38. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida Bank Boshqaruv raisi va a'zolari:

xizmat mavqeini suiiste'mol qilish orqali shaxsiy naf olishga;

manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotni oshkor etish chog'ida ma'lumotlarni yashirishga yoxud bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborot taqdim etishga;

manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilgan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha boshqa cheklovlarga rioya etmaslikka haqli emas.

4-bob. Bank Boshqaruvining javobgarligi

39. Bank Boshqaruvi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Bankning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim hamda belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

Agar ushbu band qoidalariga muvofiq bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning Bank oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

40. Bank Boshqaruvi a'zolari o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi natijasida Bankka yetkazilgan zarar uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va Bank Ustaviga muvofiq Bankka yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha to'liq hajmda Bank oldida javob beradilar.

41. Boshqaruv a'zolari faoliyati bank xizmatlarini mijozlarga taqdim etishda qiyinchilik tug'diradigan korxonalarni ta'sis etish yoki ta'sis etishda qatnashish huquqiga ega emaslar. Boshqaruv a'zosi lavozimga tayinlanganida bunday korxonalardagi o'z ishtirokini to'xtatishi va bu to'g'risida Bank Kuzatuv kengashini xabardor qilishi lozim.

42. Bank Boshqaruv raisi va a'zolari Bank va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari natijasida Bankka yetkazilgan zarar va uni o'rnini to'liq qoplash bo'yicha qonunchilik va Bank Ustaviga muvofiq javobgardir.

43. Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Bank Boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.

44. Bank tomonidan joylashtirilgan oddiy aksiyalarning hammasi bo'lib kamida 1 (bir) foiziga ega bulgan aksiyador (aksiyadorlar) Bankka yetkazilgan zararlarni o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan Boshqaruv a'zolari ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

45. Bank Boshqaruvi Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishiga va Kuzatuv kengashiga hisobdordir.

46. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qoidabuzarliklar uchun Bank Boshqaruvi a'zolariga banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan choralar va sanksiyalar qo'llanilishi mumkin.

47. Bank aksiyalarini ommaviy joylashtirish bo'yicha Bank Boshqaruvi mas'ul a'zosi (a'zolari) belgilangan vazifalar ijrosini sifatli va o'z muddatida ta'minlashi uchun javobgar hisoblanadi.

Bank Boshqaruvining mas'ul a'zosiga (a'zolariga) Bank aksiyalarini ommaviy joylashtirishni sifatli va belgilangan muddatlarda qonunchilikka muvofiq amalga oshirganligi uchun alohida mukofot yoki amalga oshirmaganlik uchun javobgarlik choralari belgilanishi mumkin.

48. Agar Bankning Boshqaruvi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida Bankka zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda Bank Boshqaruv a'zolarining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, ular Bankning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun

uning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda Bankning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

5-bob. Bank Boshqaruvinining ish tartibi

49. Bank Boshqaruvinining majlisi zarur hollarda, biroq bir oyda kamida 1 (bir) marta o'tkaziladi. Bank Boshqaruvi tomonidan Kuzatuv kengashi yoki Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritiladigan masalalar majburiy tartibda Boshqaruv majlisida oldindan muhokama etiladi. Boshqaruvning fikri haqida Kuzatuv kengashida va Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Boshqaruv raisi yoki u tomonidan vakolat berilgan Boshqaruv a'zosi axborot beradi va himoya qiladi.

50. Bank Boshqaruvi uning kun tartibiga kiritilgan masalalarni, agar majlisda Boshqaruv a'zolarining 5 (besh) nafardan kam bo'lmagan a'zosi qatnashsa, hal qilishga haqli (kvorumga ega) bo'ladi.

51. Bank Boshqaruvi majlisida qarorlar majlisda qatnashayotgan Boshqaruv a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Boshqaruv majlisida masalalar hal etilayotganda Boshqaruvning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda Bank Boshqaruv raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

Mazkur Nizomning 33-bandi oltinchi xatboshisida ko'rsatilgan masala bo'yicha qaror majlisda ishtirok etayotgan Bank Boshqaruv a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilingan qarorga rozi bo'lmagan Boshqaruv a'zolari o'z fikrlarini Bank Kuzatuv kengashiga bildirishlari mumkin.

52. Bank Boshqaruvinining majlisi Boshqaruv raisi tomonidan yoxud ko'rib chiqilayotgan masalaga egallagan lavozimi yuzasidan bevosita aloqador bo'lgan Boshqaruv raisi o'rinbosari tomonidan olib boriladi.

53. Bank Boshqaruvinining ishi samarali tashkil etilishi uchun Bank apparati quyidagi vazifalarni bajaradi:

Bank Boshqaruvi, jumladan Boshqaruv raisi yoki a'zosining majlislariga (yig'ilishlariga) ma'lumotlarni tayyorlashda ishtirok etadi;

Bank Boshqaruv raisi va a'zolariga ma'lumotlarni tarqatadi;

Bank Boshqaruvi, jumladan Boshqaruv raisi yoki a'zosining majlislarining (yig'ilishlarining) bayonnomalari (qarorlari) yuritadi, majlislar (yig'ilishlar) bayonnomalari (qarorlari) va materiallarini saqlaydi;

Bank Boshqaruvi, jumladan Boshqaruv raisi yoki a'zosining majlislarida (yig'ilishlarida) Bank apparati xodimlaridan birini kotiblik qilishi uchun ishtirokini ta'minlaydi;

Bank Boshqaruv raisi va a'zolarini, shuningdek tegishli Bank tarkibiy bo'linmalari rahbarlarini Bank Boshqaruvi, jumladan Boshqaruv raisi yoki a'zosining majlislari (yig'ilishlari) kun tartibidagi masalalariga taalluqli zarur ma'lumotlar va materiallar bilan ta'minlaydi;

Bank Boshqaruvi, jumladan Boshqaruv raisi yoki a'zosining majlislarida (yig'ilishlarida) qabul qilingan qarorlarni ijro etishi uchun tegishli Bank Boshqaruv a'zolari va Bank tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga yetkazilishini ta'minlaydi;

Bank Boshqaruvi, jumladan Boshqaruv raisi va a'zolari tomonidan yuklatilgan boshqa vazifalarni bajaradi. Bunda:

Bank apparati, jumladan uning xodimlari Bank tarkibiy bo'linmalaridan majlislarni (yig'ilishlarni) o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va materiallarni belgilangan muddatlarda so'rash va olish hamda ushbu ma'lumotlar va materiallarni tayyorlash maqsadida Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalariga tavsiyalar va topshiriqlar berish, shuningdek, mas'ul shaxslardan qabul qilingan qarorlarning bajarilishini so'rash huquqiga ega;

majlis (yig'ilish) kun tartibiga taaluqli ma'lumotlar va materiallar qaror (bayonnoma) loyihalari bilan birga Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan tayyorlanadi va Bank apparatiga majlisdan (yig'ilishidan) kamida 3 (uch) ish kuni oldin yuboriladi;

Bank apparati majlis (yig'ilish) uchun ma'lumotlar va materiallarning to'liq to'plamini shakllantiradi va ularni Bank Boshqaruv raisi va a'zolariga hamda Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga majlisdan (yig'ilishdan) kamida 1 (bir) ish kuni oldin yuboradi;

zarur hollarda, Bank Boshqaruvi, jumladan Boshqaruv raisi yoki a'zosining majlislarida (yig'ilishlarida) Bankning boshqa tarkibiy bo'linmasi xodimi kotiblik qilishi mumkin.

54. Boshqaruv majlislari bayonnomalaridan ko'chirmalar:

majburiy tartibda Bank Kuzatuv kengashi raisiga;

boshqa mansabdor shaxslar va auditorning talabiga ko'ra faqat Boshqaruv raisining ruxsati asosida;

amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarga va organlarga (shu jumladan davlat organlariga) beriladi.

6-bob. Bank Boshqaruv a'zolari fuqarolik javobgarligini sug'urtalash

55. Bank o'z mablag'lari hisobidan Bank Boshqaruv a'zolari fuqarolik javobgarligini sug'urtalashi mumkin.

56. Sug'urta hodisalari ro'yxati, sug'urta summasi miqdori, zararni qoplash tartibi va boshqa muhim shartlar Bank va sug'urtalovchi o'rtasida tuzilgan sug'urta shartnomasiga muvofiq belgilanadi.

57. Qonunchilik talablari doirasida Bank Boshqaruv a'zolari fuqarolik javobgarligini sug'urtalash to'g'risida qaror qabul qilish, sug'urta limitlarini va sug'urtalovchini belgilashni tashkil etish Bank Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

58. Ushbu Nizom Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlanib, o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingandan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

59. Ushbu Nizomga Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

60. Ushbu Nizom kuchga kirgan kundan boshlab Bank Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining 2022-yil 27-iyundagi 4-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Bankning "Boshqaruvi to'g'risida"gi Nizom hamda unga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar o'z kuchini yo'qotadi.

61. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining o'zgarishi natijasida, ushbu Nizomning ayrim bandlari unga zid bo'lib yoki haqiqiy bo'lmay qolsa, mazkur Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

62. Bankning tashkiliy tuzilmasi o'zgartirilishi munosabati bilan mazkur Nizomda keltirilgan tarkibiy bo'linmalar qisqartirilgan, vazifalari va majburiyatlari o'tkazilgan yoki nomlari o'zgargan holatlarda, ushbu tarkibiy bo'linmalarga taalluqli Nizom qoidalari ularning vazifalari va majburiyatlari o'tkazilgan (voris) tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

63. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

